



Publisher:
Fast support and result LLC

STDF

**SCIENCE TECHNOLOGY
&
DIGITAL FINANCE**

VOLUME|3 ISSUE|4
SEPTEMBER|2025



zenodo



INDEX  COPERNICUS
I N T E R N A T I O N A L



<https://bestjournalup.com/index.php/stdf>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 SEPTEMBER | 2025

ТОМ | 3 ВЫПУСК | 4 СЕНТЯБРЬ | 2025

JILD | 3 SON | 4 SENTYABR | 2025

ISSN:2992-9199

**INFLYATSIYA: IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI YENGISH YO'LLARI.
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA****Ermatov Murodjon Sunnatulla o'g'li***O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali***Abstract**

Ushbu maqolada inflyatsiyaning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va uni yengish yo'llari, xususan, O'zbekiston misolida tahlil etiladi. Inflyatsiyaning sabablari, uning iqtisodiyotga salbiy oqibatlari va mamlakatda amalga oshirilayotgan inflyatsiyaga qarshi siyosat choralari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha olib borilayotgan pul-kredit siyosati va uning samaradorligi muhokama qilinadi.

Keywords:

Inflyatsiya, iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiyaga qarshi siyosat, pul-kredit siyosati, O'zbekiston iqtisodiyoti, narxlar barqarorligi, Markaziy bank, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy xavfsizlik, inflyatsiya sabablari.

Email: ermatovmurodjon2@gmail.com

©2025. Ermatov Murodjon

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

Inflyatsiya har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim va dolzarb masalalardan biridir. Narxlar darajasining doimiy oshishi bo'lgan inflyatsiya, iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning nazoratsiz o'sishi aholining turmush darajasini pasaytirishi, investitsion muhitni yomonlashtirishi va umumiy iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, inflyatsiyaning sabablari, oqibatlari va uni boshqarish usullarini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham inflyatsiya jarayonlaridan mustasno emas. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlariga o'tish jarayonlari va tashqi iqtisodiy omillar inflyatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda inflyatsiyaning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish va uni yengish yo'llarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolada inflyatsiyaning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, uning asosiy sabablari va oqibatlari, shuningdek, O'zbekistonda inflyatsiyani boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – inflyatsiyani samarali boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'llarini aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism

Inflyatsiya - bu tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy o'sishi indeksidir. Narxlar oshganida milliy valyuta birligi kamroq tovar va xizmatlarni sotib olishi mumkin. Demak, inflyatsiya pulning xarid qobiliyatining

pasayishiga yordam beradi. Inflyatsiyaning qarama-qarshi tomoni deflyatsiya bo'lib, tovarlar va xizmatlar narxlarining barqaror pasayishi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, inflyatsiya - bu tovarlar va xizmatlar narxining umumiy darajasining o'sish tezligi (foizda ifodalangan). Inflyatsiya darajasi ma'lum bir vaqt oralig'ida mamlakatda narxlar qanchalik yuqori o'sganligini ko'rsatadi. Inflyatsiya vaqt o'tishi bilan turli aktivlar narxining oshishiga olib keladi. Inflyatsiya qanchalik yuqori bo'lsa, narxlar shunchalik oshadi.

Inflyatsiya bir qator omillar bilan qo'zg'atilishi mumkin. Ulardan eng keng tarqalganlari:

- Talab inflyatsiyasi ma'lum tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab iqtisodiyotning uni qondirish qobiliyatidan oshib ketganda paydo bo'ladi. Talab taklifdan oshib ketganda, narxlar o'sish bosimini boshdan kechiradi, bu esa inflyatsiyani keltirib chiqaradi. Eng yorqin misol - energiya tashuvchilarga talab va narxlarning o'sishi hisobiga inflyatsiya indekslarining o'sishi.

- Xarajatlarning inflyatsiyasi o'zini ish haqi va materiallar narxining oshishi bilan bog'liq narxlarning o'sishi sifatida namoyon qiladi. Bu xarajatlar, qoida tariqasida, tovarlar va xizmatlar narxining oshishi shaklida iste'molchiga tushadi.

- Pul massasining ko'payishi : aylanmadagi pullarning umumiy miqdori, shu jumladan naqd pullar, tangalar va bank hisobvaraqlaridagi pullar o'sadi. Agar pul massasi ishlab chiqarilgan mahsulotlardan tezroq o'ssa, bu inflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Pul massasi odatda Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

- Devalvatsiya - bu milliy valyuta kursining pasayishi, bu uning xarid qobiliyatini pasaytiradi. Valyutaning qadrsizlanishi eksportni rag'batlantiradi, xorijdagi mijozlar ko'proq mahalliy tovarlarni sotib oladi, chet el tovarlari esa qimmatlashadi.

- Inflyatsiya uning o'sish tezligiga va iqtisodiyotdagi boshqa hodisalarga qarab salbiy yoki ijobiy hodisa bo'lishi mumkin. Haddan tashqari inflyatsiya iqtisodiyot uchun yomon deb hisoblanadi, ammo umuman inflyatsiya ham salbiy hodisa emas. Aksariyat iqtisodchilar yiliga 2 foizlik barqaror inflyatsiyani optimal deb hisoblashadi.

Inflyatsiya iqtisodiyotga uning tezligiga qarab qanday ta'sir qiladi:

- Mo'tadil inflyatsiya yiliga 10% dan past bo'lib, bashorat qilinadigan va nazorat qilinadiganligi tufayli iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi va milliy valyutaning keskin qadrsizlanishiga olib kelmaydi.

- Tez inflyatsiya yiliga 10% dan 100% gacha. Bu mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari ba'zi barqaror va konvertatsiya qilinadigan global valyutaga bog'liq narxlarni afzal ko'radilar. Odamlar o'z pullarini turli xil moddiy ne'matlarga: avtomobillar, maishiy texnika, ko'chmas mulkka investitsiya qilish orqali tejashga harakat qilishadi - bu qo'shimcha ravishda narxlarni qizdiradi.

- Giperinflyatsiya ayniqsa yuqori, yiliga 100% dan yuqori. Ko'pincha bunday inflyatsiya o'tkir siyosiy inqirozlar yoki hukumatdan qat'iy choralar talab qiladigan urushlar oqibati bo'lishi mumkin. Bu pulga bo'lgan ishonchning yo'qolishi tufayli tovar va naqd pul aylanmasini va butun mamlakat

moliya tizimini butunlay yo'q qilishi mumkin.

Inflyatsiya iqtisodiyotga bir qator salbiy ta'sirlar ko'rsatadi:

Pulning xarid qobiliyati pasayishi: Narxlar oshishi natijasida aholi bir xil miqdordagi pulga kamroq tovar va xizmatlar sotib oladi, bu esa turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Iqtisodiy noaniqlik: Narxlarning barqaror emasligi tadbirkorlar va investorlar uchun noaniqlikni oshiradi, bu esa investitsiyalar hajmining kamayishiga va iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga sabab bo'ladi.

Jamg'armalarning qadrsizlanishi: Aholining banklardagi omonatlari va boshqa jamg'armalari inflyatsiya tufayli qadrsizlanadi, bu esa moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchni pasaytiradi.

Ijtimoiy tengsizlikning oshishi: Inflyatsiya past daromadli qatlamlarga ko'proq ta'sir qiladi, chunki ularning daromadlari narxlar oshishiga mos ravishda oshmaydi, bu esa ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. O'zbekistonda inflyatsiyaning ushbu salbiy oqibatlari iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi va aholi farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiya darajasini yanada pasaytirish borasidagi choratadbirlarning amalga oshirilishi aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash rejimi ekanligini ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozorida markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy

rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

O'zbekiston hukumati inflyatsiyani jilovlash maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bular orasida pul-kredit siyosatini qat'iyashtirish, fiskal intizomni mustahkamlash va importga qaramlikni kamaytirish kabi tadbirlar mavjud. Pul-kredit siyosatida Markaziy bank asosiy foiz stavkasini oshirish orqali iqtisodiyotdagi pul massasini nazorat qilishga harakat qilmoqda. Bu esa kreditlash hajmining kamayishiga va natijada talabning pasayishiga olib keladi. Fiskal siyosatda esa davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish va daromadlarni oshirish orqali fiskal intizomni mustahkamlashga intilmoqda. Bu esa iqtisodiyotdagi ortiqcha pul massasini kamaytirishga yordam beradi. Importga qaramlikni kamaytirishda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali tashqi bozorlarga qaramlikni kamaytirish choralari ko'rilmogda.

Shu bilan birga, inflyatsion targetlash rejimini joriy etish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Vazirlar Mahkamasining quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan muvofiqlashtirilgan tayyorgarlik ishlarini talab etadi:

inflyatsiyaning nomonetar omillari rolini bosqichma-bosqich pasaytirish, shu jumladan, tariflarni tartibga solishni isloh qilish, iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish;

Markaziy bankning makroiqtisodiy tahlil va kommunikatsiya siyosati sifatini oshirish, regulyatorning kredit bozoriga samarali ta'sir etishini ta'minlab beruvchi, pul bozorini tartibga solishning yangi instrumentlarini joriy etish.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari va instrumentlarini qo'llashni kengaytirish, shuningdek, pul-kredit siyosati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflatsion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash.

2. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari etib quyidagilarni belgilansh:

inflyatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish;

pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish va inflatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qo'llash;

pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va prognozlarni amalga oshirish;

pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish, makroiqtisodiy holatning oldindan ko'ra

bilinishini ta'minlash va bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy banki inflatsion targetlash rejimiga to'liq o'tish uchun sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash lozim.

Xulosa

Jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qilish uchun moliyaviy vositachilik institutlarini rivojlantirish maqsadida bank tizimi hamda moliya bozorlarini isloh etish, shuningdek, moliyaviy oqimlarni uzoq muddatli rejalashtirish uchun imkoniyat yaratish kerak. Ushbu chora-tadbirlar inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning samaradorligi ko'p jihatdan amalga oshirishdagi izchillik va qat'iyatga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Sayfiddinov. "Inflyatsiya va uning turlari, pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari" Toshkent-2020
2. A.A.Omonov, T.M.Qoraliev "Pul va banklar" darslik. Toshkent-2021
3. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021, 03/21/687/0380-son.
5. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. - 2024. - T. 2. - №. 2. - C. 21-24.

6. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. - 2023. - T. 2. - №. 02.

7. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. - 2022. - T. 3. - №. NUU Conference 2. - C. 348-352.

8. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. - 2023. - T. 1. - №. 1. - C. 4-9.

9. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. - 2023. - T. 1. - №. 4. - C. 301-306.

10. Цой М. Человеческий капитал и тенденции его развития //SAMBHRAM XABARNOMASI. - 2024. - T. 1. - №. 1. - C. 405-408.

11. Абсалямова С., Зульфакарова Л., Цой М. ИНВЕСТИЦИИ В УСТОЙЧИВЫЕ ПРОЕКТЫ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ТРЕНД МЕЖДУНАРОДНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЦЕССА: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14540147>//International scientific and practical conference.-2024 //Т. - T. 1. - №. 2. - C. 194-198.

12. Сагатов Б., Цой М., Гулиев А. Повышение качества продукции предприятий стройиндустрии как фактор конкурентоспособности производства //Архив Научных Публикаций JSPI. - 2020. - T. 1. - C. 79.